

ISSN:3060-4567 Modern education and development
QORAKO'L ZOTIGA MANSUB TURLI YOSHDAGI
QO'YLARDAN OLINGAN TERILAR NAVLARINI O'RGANISH

Ilmiy rahbar

Amonov Rasul Chorshambi o'g'li,

Bakalavr Ja'habaev Timur Baxadur Uli

Bakalavr Sarsenbaev Miyras Arepbaevich

Bakalavr Aymuratov Otarbay Shamurat Uli

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya. Bu moqolada qorako'l zotiga mansub turli yoshdagi qo'ylardan olingan terilar navlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Sovliqlarning yoshi, Teri navlari, Jaket-I, Qovurg'asimon-I, Yassi-I, O'sinqiragan-I, II-navlar, III-navlar .

Kirish. Hozirgi davrga kelib mahsulot sifatini yaxshilash, uning eksportboplik xususiyatlarini oshirish va ushbu xususiyatga ega bo'lgan assortimentlardagi qorako'l terilarning umumiy mahsulot tarkibidagi salmog'ini ko'paytirish muhim vazifalardan biriga aylangan. Ushbu yo'nalishlarda maqsadli ish yuritish, xususan qorako'lchilik xo'jaliklarining, umuman olganda sohaning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga zamin yaratadi.

Tatqiqot maqsadi. Mahsulotning nav va assortiment xususiyatlarini yaxshilash asosan seleksiya – naslchilik ishlarini yuritish texnologiyasiga to'liq amal qilishga, bozor talabini o'rganish asosida samarali tanlash va juftlash usullaridan foydalanishga, olingan qorako'l mahsulotiga birlamchi ishlov berishni sifatli bajarishga ko'p jihatdan bog'liq.

Tatqiqot manbai va usullari. Qorako'l zotli qo'chqorchalaridan go'sht ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi borasidagi tadqiqotlar Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi "Jarquduq yaylovlari" fermer xo'jaligida olib borildi.

Tatqiqot natijalari. Qayd etilgan farqlardan tashqari sur qorako'lichiligida sovliqlarning yoshini inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida seleksion tadbirlarning sifatli eksportbop mahsulot salmog'iga ta'sir etish darajalari o'rganildi. Umumlashtirilgan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli yoshdagi qorako'l qo'ylaridan olingan terilar navlari

Sovliqlarning yoshi	Baholangan terilar, dona	Teri navlari					
		Jaket-I	Qovurg'asimon-I	Yassi-I	O'sinquiragan-I	II-navlar	III-navlar
1,5 - 3,5	22	45,7±9,35	22,7±8,93	9,2±5,75	-	18,0±4,85	4,4±2,75
3,5 – 5,5	28	53,5±10,61	17,8±6,93	14,3±8,23	3,6±2,75	7,2±3,13	3,6±0,51
5,5 – 7,0	36	52,7±8,28	25,0±7,75	13,9±5,77	2,8±1,10	5,6±3,83	-

1-Jadval ma'lumotlari tahlili bo'yicha rang ifodalanishining yuqori bo'lishi sharoitida olinadigan qorako'l terilari nav va assortiment tarkibining ma'lum darajada yaxshilanishi aniqlandi. Ushbu sharoitda birinchi navli terilar salmog'i uchinchi variantda 94,4 foizni tashkil qilib, boshqa variantlarda ushbu ko'rsatkichning ma'lum darajada pasaygani va 89,2 va 77,6 foizni tashkil etgani kuzatildi.

Xulosa. Qayd etilgan holat terilarning assortiment tarkibi bo'yicha ham aniqlanib, qimmatli yarim doira qalamgul va qovirg'asimon guruhi terilarining 77,7 foizdan 68,4 foizgacha kamaygani kuzatildi.

Xulosada aytish mumkinki, sovliqlarning yoshini e'tiborga olib seleksiya-naslchilik ishlarini jadallashtirish maqsadli olinadigan qorako'l terilari nav va assortiment tarkibining yaxshilanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Базаров С.Р. – Продуктивность и биологические особенности каракульских овец окраски сур разных типов конституции. Автореф. Канд. Дисс. Ташкент, 2015, с. 13-18.
2. Базаров С., Юсупов.С.Ю. Чўл – яйлов чарвочилигини мадеризациялаш муамоллари. 2012 й. 52 бет.
3. Байбеков Е. Чўл – яйлов чарвочилигини мадеризациялаш муамоллари. 2012 й. 43 бет.
4. Васин Б.Н. – Наследование окраски и пезжин. Тр. Цент, стан. По генетике с-х животных. Генетика овец. 1928, т. 2., с. 1-61.
5. Васин Б.Н. – Цветной каракуль. Изд-во «Международная книга». 1946, с. 12-24.